

OLMON TILI SELEKSIYA VA URUG‘CHILIK TERMINLARINING SHAKLLANISHIDA O‘ZLASHMA QATLAMNING ROLI

Xamidov Mirmuxsin Mirolimovich, dotsent

Toshkent davlat agrar universiteti

Xamidov02@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada olmon tili seleksiya va urug‘chilik terminlarining shakllanishida o‘zlashma qatlamning roli haqida so‘z boradi. Boshqa tillardan olmon tiliga kirib kelgan seleksiya va urug‘chilikka oid terminlarning so‘z o‘zlashtirish usullari misollar yordamida yoritib berilgan.

Seleksiya va urug‘chilikka oid terminlarning o‘rganilishi qishloq xo‘jaligi sohasiga yangiliklar kirib kelishi, yanada taraqqiy etishiga ta’sir qiladi.

Kalit so‘zlar: terminologik sistema, o‘zlashma terminlar, baynalmilal so‘zlar, seleksiya va urug‘chilik terminologiyasi.

THE ROLE OF THE ABSORPTION LAYER IN THE FORMATION OF THE GERMAN TERMS SELECTION AND SEEDING

Khamidov Mirmukhsin Mirolimovich, associate professor

Tashkent State Agrarian University

Annotation: This scientific article talks about the role of the acquired layer in the formation of the German language terms of selection and seed production. The methods of word acquisition of terms related to selection and seed production, which have entered the German language from other languages, are explained with the help of examples.

The study of terms regarding selection and seeding will affect the entry of innovations into the agricultural sector, further progress.

Key words: terminological system, adopted terms, international words, selection and seed breeding terminology.

РОЛЬ АССИМИЛЯЦИОННОГО СЛОЯ В ФОРМИРОВАНИИ НЕМЕЦКИХ ТЕРМИНОВ СЕЛЕКЦИИ И СЕМЕНОВОДСТВА

Хамидов Мирмухсин Миролимович, доцент

Ташкентский Государственный Аграрный Университет

Аннотация: В данной научной статье говорится о роли приобретенного слоя в формировании немецких языковых терминов селекции и семеноводства. На примерах поясняются способы словообразования терминов, связанных с селекцией и семеноводством, пришедших в немецкий язык из других языков.

Изучение терминов, относящихся к селекции и семеноводству, влияет на то, как инновации проникают в сельскохозяйственный сектор, делая его более прогрессивным.

Ключевые слова: терминологическая система, принятые термины, международные слова, селекционная и семеноводческая терминология.

KIRISH.

Soʻz oʻzlashtirish tillar lugʻat tarkibining boyib borish manbalaridan biri hisoblanadi. Shuni taʼkidlashimiz kerakki, tilda oʻzlashma soʻzlarning eng katta qismi aynan terminologik sistemalar hissasiga toʻgʻri keladi. Terminologik sistemalarda soʻz oʻzlashtirish umumadabiy tildagidan birmuncha farq qiladi. Umumadabiy tilda boshqa tildan oʻzlashtirilayotgan soʻz bir necha yillar davomida kishilarning ogʻzaki nutqida qoʻllanib, keyin asta-sekin yozma manbalarga (badiiy va ilmiy adabiyot, lugʻatlar va shu kabilarga) kirib borsa, termin oʻzlashtirish faqat yozma shaklda roʻy beradi. Termin oʻzlashtirishning ikki turi ajratiladi: tillararo – “terminning bir tildan ikkinchi tilga oʻtishi” va sistemalararo – “terminning bir terminologik sistemadan boshqa terminologik sistemaga oʻtishi” [1,32]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Boshqa tillardan oʻzlashtirilgan terminlar maʼlum bir lingvistik xususiyatlarga ega boʻlgandagina ularga oʻzlashma terminlar sifatida qarash mumkin. Bunday xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- a) chet tilidagi soʻzning oʻzlashtirayotgan tildagi grafik va fonetik vositalar bilan ifodalanishi;
- b) oʻzlashma soʻzning oʻzlashtirayotgan til grammatik shakl va kategoriyalari bilan uygʻunlashishi;
- d) oʻzlashmaning semantik mustaqilligi;

e) o‘zlashma terminning muayyan terminologik sistemada doimiy ravishda qo‘llanilishi [2,46].

Tilshunoslikda so‘z o‘zlashtirish masalasiga baynalmilal so‘zlar masalasi juda yaqin turadi. Baynalmilal leksika deganda “qardosh bo‘lmagan tillarda bir xil ma’noda, shuningdek aynan bir fonetik tarkibda yoki qisman o‘zgarish bilan qo‘llanadigan, ana shu tillar uchun umumiy bo‘lgan so‘zlar” tushuniladi [3,20]. Ushbu masalani o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda internatsional xarakterga ega bo‘lgan so‘zlar turlicha nomlar bilan, masalan, “internatsionalizm”, “internatsional so‘zlar”, “internatsional leksika”, “internatsional terminologiya”, “xalqaro atamalar”, “interlingvizmlar”, “baynalmilal so‘zlar” kabilar bilan nomlanib kelmoqda.

M.I.Palatovning fikricha baynalmilal so‘zlarga semantik jihatdan bir-biriga to‘liq yoki qisman mos keluvchi, etimologiyasi yagona manbaga borib taqaluvchi va bir vaqtning o‘zida kamida uchta qarindosh bo‘lmagan tillarda qo‘llanuvchi so‘zlar kiradi [4,2]. Baynalmilal terminlar deganda ko‘pincha olimlar negizi yunon va lotin tillariga xos bo‘lgan so‘zlarni nazarda tutadilar. Biroq, amalda boshqa tillar asosida shakllangan baynalmilal terminlar ham ko‘plab uchraydi.

Baynalmilal so‘zlarga bo‘lgan ana shunday turlicha qarashlarni umumlashtirib, ularga quyidagi ta’rifni berish mumkin. Baynalmilal so‘zlar bu – negizi asosan yunon yoki lotin tiliga borib taqaladigan, dunyoning ko‘p tillarida keng tarqalgan, qardosh va turli tizimga mansub bo‘lgan tillarda shaklan va mazmunan bir-biriga to‘liq yoki qisman mos keluvchi til birliklaridir.

Ayrim tilshunoslar baynalmilal so‘zlar to‘g‘risida fikr bildirib, bunday so‘zlar bilan o‘zlashmalar o‘rtasida uncha katta farq yo‘q deb ta’kidlaydilar. Masalan, M.M. Makovskiy, agar o‘zlashma so‘zlar muayyan bir til ichida olib o‘rganiladigan bo‘lsa, o‘zlashmadir, bir necha til miqyosida o‘rganilsa internatsional so‘zlar deb nomlash kerak deb hisoblaydi [5,44-51]. Demak, baynalmilal so‘zlar bir necha tillar qiyoslangandagina aniqlanishi mumkin. Alohida olingan tilda esa baynalmilal so‘z mavjud bo‘lmaydi.

Baynalmilal soʻzlar dastlab bir tilning oʻz qatlamiga mansub boʻladi. Keyinchalik ular boshqa tillarga oʻtishi bilan shu tilning normalariga moslashib boradi. Bunday moslashish oʻzlashma soʻzlarda boʻlgani kabi orfografik, morfologik yoki semantik doirada yuz beradi. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki baynalmilal soʻzlar oʻzlashma soʻzlarning oʻziga xos bir qismi hisoblanadi. Terminologiyada baynalmilal terminlar deganda bir necha tillarda maʼno jihatidan bir-biriga mos keladigan, shaklan yaqin boʻlgan terminlar majmui tushuniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Olmon va oʻzbek tillari seleksiya va urugʻchilik terminologiyasida baynalmilal terminlar soni koʻpchilikni tashkil etadi. Odatda baynalmilal soʻzlar deganda koʻpincha negizi lotincha va yunoncha soʻzlar tushunilishini biz yuqorida taʼkidlab oʻtgan edik. Bunday tuzilishga ega boʻlgan terminlar terminologik sistemalarda ayniqsa ilmiy va texnik terminologiyada koʻplab uchraydi. Olmon va oʻzbek tillari seleksiya va urugʻchilik terminologiyasi ham bundan mustasno emas. Misollarga murojaat qilamiz: *Klon* – *klon*, *Agronom* – *agronom*, *Chromosom* – *xromosoma*, *Hormon* – *gormon*, *Hybride* – *gibrid / duragay*, *Individuum* – *individ*, *Infektion* – *infeksiya*, *Agronomie* – *agronomiya*, *Biologie* – *biologiya*, *Adaptation* – *adaptatsiya / moslashuv*, *Ferment* – *ferment*.

Shuni aytish kerakki, tadqiq etilgan seleksiya va urugʻchilikka oid terminlar orasida asosi ingliz va fransuz kabi tillarga borib taqaladigan baynalmilal terminlar juda kam miqdorni tashkil etadi. *Masalan: inglizcha:* *Gin* – *jin* (paxta tolasini chigitdan ajratuvchi mashina), *fransuzcha:* *Polarisation* – qutblanish, *Quarantäne* – karantin, *Zertifikat* – sertifikat.

Olmon tili seleksiya va urugʻchilik terminologiyasining genetik qatlamini oʻrganish maqsadida biz M.Hamidov, P.Ibragimov, T.Hamidovalarning “Seleksiya va urugʻchilikka oid terminlarning nemischa-inglizcha-ruscha-oʻzbekcha lugʻati”ni tahlil qildik [6,6-82]. Maʼlum boʻlishicha, olmon tili seleksiya va urugʻchilik terminologiyasidagi oʻzlashmalarning asosiy qismi yunon va lotin tillari hissasiga toʻgʻri keladi.

Yunon tilidan o'zlashtirilgan terminlar soni 65 ta bo'lib, ularga quyidagilarni misol qilish mumkin: *Zygote* – zigota / urug'langan hujayra, *Zytologie* – sitologiya, *Xenie* – kseniya, *Toxin* – toksin / zaharli modda, *Plasma* – plazma, *Physiologie* – fiziologiya, *Ökosystem* – ekotizim / ekosistema, *Ökologie* – ekologiya, *Nektar* – nektar / gulshira, *Mikrogamet* – mikrogameta / kichik hujayra.

Olmon tilidagi lotincha o'zlashmalar 49 tani tashkil etadi. Masalan, *Vegetation* – vegetatsiya / o'sish, *Selektion* – seleksiya, *Pigment* – pigment, *Ovulation* – ovulyatsiya / urug'lanish, *Mutation* – mutatsiya, *Melioration* – melioratsiya, *Immunität* – immunitet, *Akklimatisation* – iqlimlashtirish.

Fransuzcha o'zlashmalar o'rganilayotgan soha terminologiyasida atigi 6 ta xolos: *Zertifikat* – sertifikat, *Sorte* – nav, *Quarantäne* – karantin, *Polarisation* – qutblanish, *Etikette* – yorliq / etiketka, *Implantation* – implantatsiya.

Terminologiyada, jumladan seleksiya va urug'chilik terminologiyasida so'z o'zlashtirish asosan quyidagi uch xil usul bilan amalga oshiriladi:

- 1) aynan o'zlashtirish;
- 2) yarim kalkalab o'zlashtirish;
- 3) to'liq kalkalab o'zlashtirish.

Aynan o'zlashtirilgan terminlarga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin: *Habitus* – o'sish shakli, *Herbizid* – gerbitsid, *Heterosis* – geterozis, *Hormon* – gormon, *Gen* – gen, *Generation* – bo'g'in / nasl, *Genesis* – yaratilish.

Terminlarni yarim kalkalab o'zlashtirish shundan iboratki, ularning asosi o'zlashma, yasovchi qo'shimchasi esa o'zlashtirayotgan tilning yasovchi elementlari bilan almashtirilgan bo'ladi.

Masalan:

Homogenität – bir jinslilik,

Homozygotie – turg'unlilik,

Variabilität – o'zgaruvchanlik,

Sterilität – bepushtlik,

Produktivität – unumdorlik,

Selektivität – saralovchanlik,

Komplettierung – jamlash,
Klassifizierung – turkumlash.

To'liq kalkalashning strukturaviy va semantik usullari mavjud bo'lib, hozirda olmon tilida ishlatilayotgan inglizcha o'zlashma terminlarning aksariyat qismi semantik kalka qilingan so'zlardan iboratdir. Semantik kalkada ham nusxa ko'chirish saqlanadi: bir tildagi leksemaga boshqa tildagi muqobili qidirib topiladi va shu topilgan leksemaga o'zlashtirilayotgan leksik ma'no yuklanadi [7,110]. Masalan:

die Befruchtung – fertilization – urug'lanish,
die Fruchtfolge – crop rotation – almashlab ekish,
die Saat – sowing – ekish,
die Landwirtschaft – farming – qishloq xo'jaligi,
die Erntearbeit – harvesting – hosilni yig'ish,
das Pflügen – ploughing – shudgorlash.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, olmon tili seleksiya va urug'chilik terminlarining shakllanishida o'zlashma qatlamning roli muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqa tillardan olmon tiliga kirib kelgan seleksiya va urug'chilikka oid terminlarning so'z o'zlashtirish usullari bir necha kategoriyalarda o'rganiladi. Seleksiya va urug'chilikka oid terminlarning o'rganilishi o'z navbatida qishloq xo'jaligini yanada rivojlanishiga hissa qo'shadi desak mubolag'a bo'lmaydi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Лейчик В.М. Предмет, методы и структура термин ведения: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – М., 1989. – 47 с.
2. Ярнатовская В.Е., Шилова Г.С. Морфологическое оформление иноязычных терминов // Термины в языке и речи. Межвуз. Сборник. - Горький, 1985. - 121 с.
3. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2002. – 168 b.

4. Палатов М.И. Семантическая структура интерлингвизмов греко-латинского происхождения в современных европейских языках // Опыт синхронно-сопоставительного исследования: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1970. – 28 с.

5. Маковский М.М. К проблеме так называемой “интернациональной” лексики // Вопросы языкознания. – Москва, 1960. №1. – С. 44-51.

6. Hamidov M.M., Ibragimov P.Sh., Hamidova T.R. Seleksiya va urug‘chilikka oid atamalarning nemischa-inglizcha-ruscha-o‘zbekcha lug‘ati. – T.: 2011. – 152 b.

7. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Darslik. – T.: “Universitet”, 2006. – 476 b.

8. Mirolimovich X. M. BEGRIFFE DER SELEKTION UND SAMENZUCHT IN DER DEUTSCHEN SPRACHE //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2023. – T. 3. – №. 04. – С. 132-136.

9. Xamidov M. QISHLOQ XO'JALIGI TERMINLARIDA SINONIMIYA HODISASI //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 6. – С. 50-52.